

BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHIDAGI SINFLARDA INGLIZ TILIGA QIZIQISHINI ORTTIRISH USULLARI

Bekmurodova Pokiza

Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili fakultet 2.
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova

Annotatsiya: This article talks about modern innovative methods of teaching English to primary education classes

Key words: Innovative technologies, table, sensory organs, ball game

Hozirgi kunda ingliz tiliga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik hamkorlar uchun, bundan tashqari bizning yurtimiz turistik zona bo'lganligi uchun mamlakatimizda chet tillariga qiziqish, e'tibor kuchli.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ -1875- soni boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'rgatish uchun poydevor bo'ldi. Qaror bo'yicha 1-sinf bolalariga faqat talaffuz qilish va musiqalar yordamida ingliz tili o'rgatilsa, 2-sinfda esa alifboni va yozishni o'rgatish rejalari tuzilgan edi. Bugungi kunda esa bog'cha bolalariga ham ingliz tili o'rgatilayotganligi sababli 1-sinfga borgan o'quvchi ingliz tilidan anchagina so'z boyligiga ega bo'ladi va 1- sinfdan alifboni va yozishni o'rganishadi.

Bolalarga chet tillarini o'rgatayotganda birdan murakkab qismidan ya'ni grammatikadan boshlamalik kerak. Chunki 6-7 yoshli bolalar ham asosan yodlash orqali o'rganishadi. Agar birdan qoidalardan boshlab o'rgatilsa bolalarda charchash holati kuzatiladi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari so'nadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf bolalariga ham turli xil kommunikativ usullar orqali chet tillarini o'rgatish osonroqdir.

Ko'rish orqali eslab qolish.

Kichik yoshdagi bolalar eshitishga nisbatan ko'rish orqali ko'proq eslab qolishadi. Bolalarga ko'zga ko'rinadigan narsalarni ko'rsatib ingliz tilida nomini so'rash yoki yangi so'zlarni ishtirok ettirib qisqa gaplar tuzdirish foydalidir. Masalan: sinf xonasidagi buyumlar ; kitob (book), stol (table), doska (blackboard).

Qo'shiq aytish orqali.

Bolalarga o'zlariga qiyin bo'lgan so'zlarni qo'shiq qilib kuylash orqali ham oson qilib o'rgatish mumkin. Bu usul ham juda foydali. Misol uchun: oila a'zolarini , ta'na a'zolari va boshqalar.

Sezgi a'zolari orqali.

Bu usulda turli xil mevalar , sabzavotlar, shirinliklarni yeganimizda qanaqa ta'mni his qilganimizni , uning ko'rinishini , rangini yoki boshqa bir buyumni ushlab ko'rib qanaqa shaklda ekanligini o'rgatish orqali. Misol uchun: lemon - nordon, sariq , oval .(lemon - sour, yellow, ellipse).

Koptokcha o'yini orqali.

Bunda har bir o'quvchiga birma - bir ko'ptokcha otiladi, ko'ptokchani olgan o'quvchi ingliz tilida biror - bir yangi so'z aytadi, keyingi olgan o'quvchi avvalgi aytilgan so'zning oxirigi harfidan boshlanuvchi yangi so'z aytadi. Shu orqali bolalar yangi so'zlarni ko'proq o'rganishadi va diqqatlarini ham jamlashni o'rganishadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni qiyin shaklda emas aksincha qiziqarli o'yinlar, zamonaviy innovatsion usullardan foydalanib o'rgatish kerak. Bolalarga til o'rgatishni yanada oson qilish esa pedagogning mahoratiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Juldashaeva, N. N. (2020). Хорижий тилларни уқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг урни. Молодой ученый, (12), 332-333.
3. Nodira Qurbonaliyeva. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullari".// 2021.

